O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/1



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

2026/1

Bosh muharrir
Rashid MATKARIMOV

Bosh muharrir o‘rinbosari ilmiy maslahatchi:
SH.SH. GAZIYEV

Tahrir hay’ati tarkibi:

E.T. Raxmanov
SH.S. Mirzanov
M.X. Mirjamalov
M.O‘. Arziqulov
S.B. Repkin
Bek Mun Jong
I.P. Sivoxin
N.T. To‘xtaboyev
B.K. Erimbetov
I.B. Aliyev
L.P. Yugay
D.X. Umarov
A.K. Eshtayev
K.SH. Ziyadullayev
N.J. Isakulova
A.B. Jumaniyazov
M.M. Qirg‘izboyev

Tahrir hay’ati kotibi

SH.X. Toshturdiyev
B.A. Ishimov
R.I. Isroilov
A.U. Rashidov
O.Y. Mamishev
A.S. Gonashvili

Texnik tahririyat tarkibi:

N.N.G‘afforov
U.O. Azimova
SH.B. Aliyeva
M. Rahmonov

fan-sportga.uz

Jurnalning telegram kanali

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ

SPORT MASHG‘ULOTLARI: TEXNIKA, TAKTIKA, USULIYAT SPORTS TRAINING: TECHNIQUE, TACTICS, METHODOLOGY ТЕХНИКА, ТАКТИКА И МЕТОДИКА СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ

Г.М. Зоитова., А.Р. Машарипов., Д.А. Холмуродова., М.Н. Исломова., Н.А. Убайдуллаева – Комплексная оценка постурального контроля и физической подготовленности спортсменок сборной команды Республики Узбекистан по синхронному плаванию. 3

O.O. Kasimov – Xalqaro sport musobaqalarida sportchilar ishtirokida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etishning huquqiy mexanizmlari. 6

N.R. Saidova – Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarning mashg‘ulotlarini kompleks nazorat qilish orqali jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 9

A.T. Ro‘zmetov – Voleybolda to‘p qabul qilish va uzatish aniqligini takomillashtirish texnologiyasi samaradorligi. 13

Г.Т. Саидова – Сравнительная оценка соматотипологических особенностей спортсменок, занимающихся фехтованием и художественной гимнастикой. 17

Е.С. Епифанова – Влияние специфики тренировочного процесса тяжелоатлеток в подготовительном периоде. 20

D.S. Nishanova – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi basketbolchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning samarali uslubiyati. 23

X.X. Qurbonov – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘rta masofalarga yuguruvchilar mashg‘ulotlarini tashkil etish uslubiyati. 27

С.Ф. Ашуркова., А.А.Умматов – Развитие скоростно-силовых способностей волейболисток 14-15 лет с использованием специальных упражнений легкоатлетов. 32

M.K. Jumaniyazov – Regbi sportchilarida chidamlilikni rivojlantirish usullari va ularning funksional ko‘rsatkichlarga ta’siri. 36

N.A. Egamberdiyeva – Yosh basketbolchilarni kombinatsiyalangan mashqlar orqali o‘yin texnikasini optimallashtirish uslubiyati. 39

H.E. Musulmonov – Malakali belbog‘li kurashchilarda usullarni o‘ng- chap tomonlama qo‘llash tajribasini o‘rganish natijalari va uning samaradorligi. 43

F.V. Ganiyeva – Malakali basketbolchilarning jismoniy konditsiyalarini takomillashtirishda maxsus jismoniy mashqlardan foydalanish omili. 47

A.T. Xasanov., B.B. Xaitbayeva – Ritmik gimnastika vositalarini o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatlari va samaradorligi. 51

J.M. Shukurllayev – Mini voleybolni voleybolga integratsiyalash jarayonida mashg‘ulotlar piramidasining metodik asoslari. 54

FAN Sportga
ilmiy-nazariy jurnali

“FAN – SPORTGA”
ilmiy-nazariy jurnali

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muassisligida chop etiladi

Tahririyat manzili:
111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy.

Mazkur ilmiy jurnal elektron formatda nashr qilinadi

05.02.2018 yilda Toshkent shahrida ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ro‘yxatga olish raqami № 02-005 “FAN – SPORTGA” jurnali 2004 yildan nashr etiladi.

Suratlar muallifi:
Anvar Ilyasov
Abdullo Fayzullayev

2026/1

J.O. Xajibaev – Dzyudochilarning yillik tayyorgarlik davrida kuch tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 59

M.A. Umbetova – Yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlanish darajasini aniqlash va rivojlantirish samaradorligi. 62

A.O‘. Matnazarov – Og‘ir atletikachilarning siltab ko‘tarish mashqini tayyorgarligini pedagogik nazorat qilish. 67

M.O. Xamudov – 400 metrga yuguruvchi o‘quv-mashg‘ulot guruhi sportchilarida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi. 71

A.M. Yusupov – Kurashchilarni texnik usullarini bajarishdagi tezkor kuch sifatini rivojlantirish. 75

P.P. Акрамов – Планирование технической подготовки юных пловцов с учётом возрастных особенностей двигательного развития. 77

A.A. Boltayev – Yuqori malakali voleybolchilarda maxsus ish qobiliyatining tezokrlik-kuch komponentlari. 80

G‘.U. Berdiyev – Jismoniy tarbiya darslarini ochiq havoda o‘tkazishda issiq iqlim sharoitining mashg‘ulot o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri. 83

JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TIBBIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI
MEDICAL-BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT
МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

M.B. Akbarov – Maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishda yengil atletika mashg‘ulotlariga gimnastika vositalarini integratsiya qilish samaradorligi. 88

Ф.А. Соловьева – Перспективы применения искусственного интеллекта в менеджменте фитнес-индустрии: анализ цифровых решений. 91

O.K. Raupov., N.I. Isoev., A.A. Kurbonov – Oliy ta’lim muassasalarida sport mashg‘ulotlarini qiziqarli va interaktiv shakllarda tashkil etish samaradorligi. 94

J.A. Ochilov – Zamonaviy axborot jamiyatida bolalarning sportga oid ta’lim tarbiya madaniyatini takomillashtirish. 97

A.A. Mamatkulov – I-IV sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishlarida total va parsial ko‘rsatkichlar tahlili. 99

T.U. Ismoilov – Yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashda davlat direktiv hujjatlarining ahamiyati. 104

A.A. Tursunov – Voleybolda to‘pni qabul qilish va uzatish texnikasi aniqligini erta yosh bosqichida shiddatli yuklamalar asosida shakllantirishning pedagogik xususiyatlari. 107

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA
ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА

М.Г. Хайдаров., М.Р. Ташев – Формирование и совершенствование бросковых навыков в спортивной игре «бочча». 111

X.S. Arabov – Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi futbolchilar tayyorgarligini oshirishda kompleks harakatlar texnologiyasini qo‘llash mexanizmi. 114

sitalardan foydalangan holda sport mashg‘ulotlarini tashkil etish oliy ta’lim muassasalarida talabalarni faol, sog‘lom va sportga qiziqqan shaxslar sifatida shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Arabboyev Q.T. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari). Toshkent: TIU nashriyoti, 2023.
2. Sultanova N.Ya. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘quv qo‘llanma). Buxoro, 2023.
3. Kerimov, F. A. Jismoniy tarbiya va sport nazariya va metodika. Toshkent, 2023.
4. Luminita Georgescu. Sport Science and Physical Education. 3 jildlik to‘plam. EOLSS Publishers, 2021.
5. Demirhan, Gıyasettin, & Bulca, Yeşim. Physical Education in Higher Education. EOLSS Publishers, 2020.
6. O’Brien, D., Corbett, B., Gowthorp, L., & Ferkins, L. Strategic Management in Sport. Routledge, 2019.
7. Sultonov R. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2022.
8. Karimova, L. Oliy ta’limda sport mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent, 2021.

O‘qituvchi
J.A. OCHILOV[1]
[1]Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
Samarqand shahri, O‘zbekiston

https://orcid.org/0009-0002-6736-6237

10.65149/fansport.2026.v9i1.a027

ZAMONAVIY AXBOROT JAMIYATIDA BOLALARNING SPORTGA OID TA`LIM TARBIYA MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

В данной статье освещаются теоретико-практические основы формирования и развития культуры спортивного воспитания и образования детей в условиях современного информационного общества. В частности, на примере настольного тенниса анализируются преимущества использования информационных технологий в спортивных занятиях, эффективные педагогические подходы, а также пути развития спортивной культуры у детей в информационной среде.

***Ключевые слова**: информационное общество, спортивная культура, настольный теннис, образование и воспитание, физическое развитие, цифровые технологии.*

Abstract

Ushbu maqolada zamonaviy axborot jamiyatida bolalarning sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari yoritilgan. Xususan, stol tennisi misolida sport mashg‘ulotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari, samarali pedagogik yondashuvlar hamda axborot muhitida bolalarda sport madaniyatini rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

***Kalit so‘zlar**: axborot jamiyati, sport madaniyati, stol tennisi, ta’lim-tarbiya, jismoniy rivojlanish, raqamli texnologiyalar.*

This article highlights the theoretical and practical foundations for the formation and development of children’s sports education culture in the context of the modern information society. In particular, using table tennis as an example, the advantages of applying information technologies in sports training, effective pedagogical approaches, and ways of developing sports culture among children in the digital environment are analyzed.

***Keywords**: information society, sports culture, table tennis, education and upbringing, physical development, digital technologies.*

Bugungi global axborotlashgan jamiyatda ta’lim jarayoniga, xususan, sport sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Bolalarning sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatini takomillashtirish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikka bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Jismoniy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan samarali ta’limiy yondashuv barcha yoshdagi shaxslarni, xususan, jismoniy faollikdan uzoqlashgan, qatnashishga motivatsiyasi past, uyalchan yoki kommunikatsiyaga qiynaluvchi, yolg‘izlikda qolgan, befarq yoki nogironligi bor shaxslarni ham qamrab olishi lozim. Bu esa pedagogdan shaxsiylashtirilgan, empatik va qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvni talab qiladi. Bunday ta’limiy amaliyotlar orqali o‘quvchilarning o‘zini ishonchli his qilishi, jismoniy faoliyatga ijobiy munosabat shakllantirishi va inklyuziv muhitda rivojlanishi ta’minlanadi [1].

Muntazam jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish jismoniy va ruhiy salomatlik uchun katta foyda keltiradi. Kattalarda ham jismoniy faollik ko‘plab yuqumli bo‘lmagan kasalliklar, jumladan, qon tomir kasalliklari, saraton va qandli diabet kasalliklarining oldini olish hamda ularni boshqarishga yordam beradi, depressiya va xavotir alomatlarini sezilarli darajada kamaytiradi, miya salomatligini yaxshilaydi va umumiy farovonlikni oshiradi [3].

Sport madaniyati — bolalarning jismoniy tarbiya jarayoniga ongli yondashuvi, sport qoidalariga rioya qilishi, o‘z salomatligi uchun mas’uliyatni his etishi demakdir. Bunda:

- sport etikasi;
- intizom;
- o‘zini boshqarish;
- sog‘lom raqobat;
- jamoada ishlash ko‘nikmalari

kabi fazilatlarning shakllanishi juda muhim [4].

Bolani har tomonlama jismoniy rivojlantirishning umumiy tizimida jismoniy tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, yosh davrda stol tennisi qo‘l harakatlarining faollashuvi, qo‘l panjalari mayda motorikasining rivojlanishi hamda bilak va qo‘l mushaklarining

mustahkamlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu sport turi qo‘l harakatlari tezligini oshirish, diqqatni jamlash va tezkor reaksiya ko‘nikmalarini shakllantirishda foydalidir [2].

Biz tadqiqot jarayonida bolalarda sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatini shakllantirishda quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oldik.

Jadval

Stol tennisi vositasida bolalarda sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatini shakllantirish yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Muddat	Mazmuni	Natija
Sport ta’limi to‘g‘risida ma’lumot	Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida	Bolalarda sportga oid bilimlarni shakllantirish, jumladan, stol tennisi orqali sport bilimlarini shakllantirish	Bolalarda sportga oid bilimlar, ko‘nikmalar hamda sportning inson hayoti davomida muhimligi shakllanadi
Stol tennisi o‘yini haqida ma’lumot berish	Darsdan tashqari mashg‘ulotlar va davra suhbatlari davomida	Bu yo‘nalish bolalarga stol tennisi qoidalari, o‘ynash vositalari haqida ma’lumot beradi	Stol tennisi o‘yini haqida ma’lumot berish orqali bolalarda stol tennisiga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoq oshadi
Stol tennisi sportining tarixi haqida tushuncha hosil qilish	Darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida	Stol tennisining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, tarixdagi eng kuchli sportchilar haqida ma’lumot berish	Bolalarda stol tennisi tarixini anglash va stol tennisi haqida tushuncha hosil bo‘ladi
Eng kuchli stol tennischilar haqida ma’lumot berish	Darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida	Eng kuchli jahon va O‘zbekiston stol tennischilari hayoti va natijalari haqida qiziqarli ma’lumotlar berish	Bu bolalarning stol tennisidagi ideallarini aniqlashga va stol tennisiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi
Stol tennisining salomatlik darajasini yaxshilash haqida ma’lumot berish	Darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida	Stol tennisining inson sog‘lig‘i va shakllanishiga qay darajada muhim ekanligini, bolalar nima uchun stol tennisini tanlashi kerakligini tushuntirish	Bolalarda stol tennisi miya, ko‘z, qo‘l va oyoq harakatlarining muvofiqligini yaxshilashi, ko‘rish o‘tkirligini oshirishi va qon aylanishini yaxshilashi haqida tushuncha shakllanadi
Jismoniy sifatlarni yaxshilash to‘g‘risida ma’lumot berish	Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida	Stol tennisi orqali bolalarda beshta jismoniy sifatni birday shakllantirish	Bolalarda stol tennisi chaqqonlik, kuchlilik, egiluvchanlik, chidamlilik va tezkorlik sifatlarini rivojlantiradi hamda organizmga bir xil ta’sir etadi
Stol tennisi texnikasi va taktikasi haqida ma’lumot berish	Darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida	Stol tennisi texnikasi va taktikasini tushuntirish orqali bu o‘yin nafaqat foydali, balki qiziqarli sport turi ekanligini ko‘rsatish	Bolalarda stol tennisi o‘yinining texnika va taktikasi orqali ushbu sport turiga bo‘lgan muhabbat va qiziqishni uyg‘otish

Ushbu ishlab chiqilgan yo‘nalishlar asosida bolalarda sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatini shakllantiruvchi omillar va ularning ta’sir etish xususiyatlari ishlab chiqildi.

Stol tennisining tarixi va rivojlanish bosqichlari. Bolalarda sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan dastur mazmunining birinchi omili sifatida asosan stol tennisi tarixi, rivojlanish bosqichlari va uning yildan-yilga keng ommalashib borayotgani bolalarga tushuntirildi.

Stol tennisi tarixi XIX asr oxirlarida Angliyada yuqori tabaqadagi odamlar tomonidan yomg‘irli kunlarda tennisni ichkarida o‘ynash uchun ixtiro qilingan. Stol tennisi tarixini o‘qitish orqali bolalarda stol tennisiga bo‘lgan qiziqishni oshirish maqsad qilib olindi. Bolalarga stol tennisi tarixini o‘rgatish uchun kerakli ma’lumotlar mavjud. Bolalar stol tennisi tarixi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirildi hamda qiziqarli ma’lumotlar berildi. Ishlab chiqilgan dastur mazmunida stol tennisiga doir ko‘rgazmali materiallar, xususan, tarixiy fotosuratlar va video lavhalar darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarga yetkazib berildi. Stol tennisining dastlab qanday raketka va shariklarda o‘ynalgani, keyinchalik esa zamonaviy raketkalarga qanday o‘tilgani tushuntirildi. Stol tennisi 1988-yilda Seulda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlaridan boshlab rasmiy musobaqa sport turi sifatida kiritilgani, bu sport turi dunyo miqyosida tan olingani va ommabop sport turi ekanligi bolalarga yetkazildi.

Stol tennisining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati. Ta’lim-tarbiya tizimida muhim yo‘nalish sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi to‘g‘risida ma’lumotlar berildi. Bu kelajak avlodga sog‘lom muhit qoldirish vazifalari bilan bog‘liqligi tushuntirildi. Yurtimiz aholisining aksariyat qismini tashkil etuvchi yoshlar mamlakatimiz kelajagini belgilab beradi. Bolalarning ta’lim-tarbiya madaniyatini shakllantirishda, shu bilan birga, aqliy faollik va diqqat barqarorligini rivojlantirishda stol tennisidan izchil foydalanish katta samara berishi to‘g‘risida ma’lumot berildi.

Jahonga mashhur dunyo va O‘zbekiston stol tennischilari haqida kerakli ma’lumotlar yig‘ildi. Bolalarga mashhur stol tennischilar haqida qiziqarli ma’lumotlar berildi. Jumladan, jahonda Ma Long, Zhang Jike, Jan-Ove Waldner hamda mahalliy mashhur stol tennischilar Zohid Kenchayev, Rimma Ganiyeva, Shohrux Iskandarov va Marhabo Magdiyevalar to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etildi.

Stol tennisining jismoniy rivojlanishga ta’siri. Bolalarga stol tennisi miya, ko‘z, qo‘l va oyoq harakat-

larining muvofiqligini shakllantirishga, shuningdek, tezlik, koordinatsiya, refleks, chidamlilik, epchillik va umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga bo‘lgan ta’siri haqida ma’lumotlar yig‘ilib taqdim etildi. Shu orqali bolalarda stol tennisi sport turi naqadar muhim va foydali ekanligi darsdan tashqari mashg‘ulotlarda yetkazildi.

Bolalarda sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatini takomillashtirishga oid tajribalarga Samarqand viloyatidan 20 nafar, Jizzax viloyatidan 15 nafar va Navoiy viloyatidan 13 nafar ishtirokchi jalb etildi.

Bolalarning dastlabki sportga oid bilim darajasi aniqlab olindi. Jizzax viloyati misolida dastlabki test natijalari 56,8 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, tajribadan keyingi test natijalari 74,9 % ga ko‘tarildi. Stol tennisi misolida bolalarning sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatini shakllantirish dasturi ishlab chiqildi hamda mashg‘ulotdan so‘nggi tarbiyaviy ishlarda qo‘llanildi. Natijada bolalarning sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatiga doir bilim doirasi CAPL baholash dasturi bo‘yicha 18,03 % ga yaxshilandi.

Jizzax shahar 1-son sport maktabi

Bolalarning dastlabki sportga oid bilim darajasi aniqlab olindi. Navoiy viloyati Xatirchi tumani sport maktabi shug‘ullanuvchilari misolida dastlabki test natijalari 59,43 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, tajribadan keyingi test natijalari 85,5 % ga ko‘tarildi. Natijada CAPL baholash dasturi bo‘yicha 26,11 % ga yaxshilanish kuzatildi.

Navoiy viloyati Xatirchi tumani bolalar va o‘smirlar sport maktabi

Bolalarning dastlabki sportga oid bilim darajasi aniqlab olindi. Samarqand viloyati sportning o‘yin turlari va yengil atletika bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi shug‘ullanuvchilari misolida dastlabki test natijalari 52,3 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, tajribadan keyingi test natijalari 80,2 % ga ko‘tarildi. Natijada bolalarning jismoniy savodxonlik darajasi CAPL baholash dasturi bo‘yicha 27,8 % ga yaxshilandi.

Biz olib borgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarda sportga oid ta’lim-tarbiya madaniyatini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan dastur to‘laqonli, asosli va ishonchli ekanligi tasdiqlandi. Bugungi kunda bolalarning sportga oid bilimlarini takomillashtirish juda zarur va muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan bolalarda sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish zarur.

Tadqiqot olib borilgan obyektlarda bolalar bilan o‘tkazilgan dastlabki suhbatlar jarayonida murabbiylar tomonidan asosan amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratilib, nazariy bilimlar yetarli darajada berilmayotganligi aniqlandi. Testning birinchi bosqichi natijalari ham bolalarning sportga oid nazariy bilimlariga e’tibor past darajada ekanligini ko‘rsatdi.

Murabbiylar bilan suhbatlar o‘tkazilib, ishlab chiqilgan dastur mazmuni haqida tushuntirishlar berildi. Obyektdagi murabbiylar bilan mazkur dasturni amaliyotga joriy etish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Bugungi kundagi asosiy muammolardan biri — bolalarga sportga oid nazariy bilimlar yetarli darajada tushuntirilmayotgani va ularning sport bilan ko‘proq hobbi sifatida shug‘ullanib kelayotganligidir.

Adabiyotlar:

1. Whitehead, M. (2010). Physical literacy: Throughout the life course. Routledge
2. Akramjonovich, Y. I., Azamovich, A. M va Abdukhamidovich, M. I. (2022). The benefits of table tennis on the development of the child’s body. international journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(09), 5-8.
3. Xudoyberdiyev, F. (2021). Zamonaviy sport va yoshlar ta’limi: Pedagogik yondashuvlar va metodlar. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti
4. Jumanov.O.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2021 18-20-b
5. Robinson, K. (2013). Finding your element: How to discover your talents and passions and transform your life. Penguin Books.



Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. MAMATKULOV[1]
[1]Guliston davlat universiteti
Guliston shahri, O‘zbekiston

10.65149/fansport.2026.v9i1.a028

I-IV SINF O‘QUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHLARIDA TOTAL VA PARSIAL KO‘RSATKICHLAR TAHLILI

Annotatsiya

В статье представлены аналитические материалы, посвящённые реализации задач, обозначенных в «Межотраслевой программе развития школьного спорта до 2026 года» Республики Узбекистан. С учётом необходимости создания условий для развития способностей учащихся младшего школьного возраста рассмотрены показатели их здоровья,

Abstract

Maqolada O‘zbekiston Respublikasining “2026 yilgacha maktab sportini rivojlantirishga oid tarmoqlararo dasturi”da ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining iste’dodlarini rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratishni inobatga olgan holda ularning salomatlik ko‘rsatkichlari — antropometrik ma’lumotlar hamda o‘sish jarayonidagi o‘zgarishlar tezligi, uyg‘un rivojlanishi, kalendar va biologik yosh nisbati kabi konstitutsiyaviy xususiyatlariga oid tahlillar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar**: o‘quv dasturi, jismoniy rivojlanish, antropometriya, morfofunksional komponent, nozologik yondashuv.*


YONEX
Knock-Out Stage
CUI/PENG
HN/LEE
'4 Mixed Team - Knock-Out Stage
KARUNAKARAN Sathish Kumar
SU Li Yang
RHINE-RUHR 2025
FISU WORLD UNIVERSITY GAMES
Nikon
Deloitte.
RIEDEL
macron
YONEX
WESTLOTTO
RIEDEL
macron